TURKIY XALQLARNING UNASHTIRUV MAROSIMLARI: O‘ZBEK TAJRIBASI VA TRANSFORMATSIYASI

Rasulova Ziyodaxon Abduboriyevna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti professori
psixologiya fanlari doktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287468

ANNOTATSIYA

Maqolada, 2001–2021-yillarda o‘zbeklarning turli yosh avlodlari va ijtimoiy qatlamlari (n=259) o‘rtasida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar (ichki-tashqi kuzatuvlar hamda individual-erkin so‘rovlar) natijalariga tayangan holda, o‘zbek madaniyatidagi unashtiruv marosimlari, ularning madaniy va etnopsixologik ahamiyati, rang-barang xususiyatlari hamda zamonaviy sharoitda kechayotgan transformatsiyasi tahlil qilinadi. An’anaviy unashtiruv muallif tomonidan uchta asosiy turga (tug‘ilmagan bolalarni, bolalik davrida va voyaga yetganda unashtirish) bo‘linib, har birining ijobiy hamda salbiy ijtimoiy-psixologik jihatlari (oilalar o‘rtasidagi do‘stlik, iqtisodiy-ma’naviy yaqinlik, yoshlar ongida yuzaga keladigan bosim va ziddiyatlar) atroflicha o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ibtidoiy davrlardan buyon iqtisodiy manfaat va oilaviy hamkorlik maqsadida shakllangan bu marosimlar islom dini ta’siri ostida diniy-ma’naviy mazmun kasb etganini ko‘rsatadi. Zamonaviy urbanizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar birinchi ikki turining deyarli yo‘qolishiga, uchinchi turining esa asosan ramziy shaklda saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unashtirish bilan bog‘liq an’analar nafaqat oilaviy institutning tarixiy ildizlari va ijtimoiy funksiyalarini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy jarayonlarda an’anaviy urf-odatlarning qanday transformatsiyaga

KALIT SO‘ZLAR

turkiy xalqlar, unashtiruv, bel quda, beshik ketti, oqliq, non sindirsh, fotiha, transformatsiya, ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, o‘zbeklar.

uchrashini ham yoritadi. Shuningdek, milliy merosni zamonaviy sharoitlarda asrab-avaylash, oilaviy institutni mustahkamlash hamda an’anaviy marosimlarni uyg‘un tarzda rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

тюркские народы, обряд обручения, бел кудо, бесик кетти, оклык, обряд разлома хлеба, обряд фатиха, процесс трансформации, социально-психологические факторы, этнопсихологические особенности, узбеки.

АННОТАЦИЯ

В статье, опирающейся на результаты эмпирических исследований, проведённых в 2001–2021 гг. среди разных возрастных и социальных групп узбекского населения (n = 259) с использованием методов внутреннего и внешнего наблюдения, а также индивидуально-свободных опросов, анализируются узбекские обряды помолвки (*унаштирув*), их культурно-этнопсихологическое особенности, разнообразные формы и современные трансформации. Автор предлагает классификацию данных обрядов на три основных типа (помолвка нерождённых детей, помолвка в детском возрасте и помолвка в совершеннолетии). В каждом случае рассматриваются как положительные (укрепление дружеских связей между семьями, экономическая и духовная близость), так и потенциально отрицательные (социально-психологическое давление, конфликты) стороны. Результаты исследования свидетельствуют о том, что данные обряды, сформировавшиеся в глубокой древности ради экономической выгоды и семейного сотрудничества, впоследствии обрели религиозно-духовный характер под влиянием ислама. В условиях урбанизации и социальных перемен первые два типа практически исчезли, а третий сохранился преимущественно в символической форме. Научная значимость работы заключается в том, что она не только раскрывает исторические корни и социальные функции семейного института, но и наглядно показывает, как традиционные обычаи видоизменяются под воздействием

динамичных социокультурных процессов. Кроме того, автор предлагает теоретические и практические рекомендации, направленные на сохранение национального наследия, укрепление института семьи и гармоничное развитие традиционных обрядов в современных условиях.

ABSTRACT

The article, based on the results of empirical research conducted in 2001-2021 among different age and social groups of the Uzbek population (n = 259) using methods of internal and external observation, as well as individual free surveys, analyzes Uzbek engagement rites (unashtiruv), their cultural and ethno-psychological peculiarities, various forms and modern transformations. The author proposes a classification of these rites into three main types (engagement of unborn children, engagement in childhood and engagement in adulthood). In each case, both positive (strengthening of friendly ties between families, economic and spiritual closeness) and potentially negative (socio-psychological pressure, conflicts) sides are considered. The results of the study suggest that these rituals, formed in ancient times for the sake of economic gain and family cooperation, later acquired a religious and spiritual character under the influence of Islam. In the conditions of urbanization and social change, the first two types have practically disappeared, while the third type has been preserved mainly in symbolic form. The scientific significance of the work lies in the fact that it not only reveals the historical roots and social functions of the family institution, but also clearly shows how traditional customs are modified under the influence of dynamic socio-cultural processes. In addition, the author offers theoretical and practical recommendations aimed at preserving the national heritage, strengthening the family institution and harmonious development of traditional rituals in modern conditions.

KEY WORDS

Turkic peoples, engagement ceremony, bel quda tradition, beshik ketti ritual, oqliq tradition, bread-breaking ritual, fotiha ceremony, transformation process, socio-psychological factors, ethnopsychological characteristics, Uzbeks.

KIRISH

Turkiy xalqlar madaniyatida ko‘plab qiziqarli an’analar, urf-odat va marosimlar mavjud. Shulardan unashtirish bilan bog‘liq marosimlar alohida o‘rin tutadi. *Unashtirish* – nikoh to‘yidan oldin yigit va qiz tomonning roziligini rasmiylashtirish uchun o‘tkaziladigan marosim [15: 116]. Bunday rozilik, qadimdan yigit va qizning o‘zidan ko‘ra, ularning ota-onasiga tegishli bo‘lgan. Markaziy Osiyo xalqlari orasida unashtiruv bir necha ko‘rinishda amalga oshirilgan. Ularni 3 turga ajratishimiz mumkin: 1) hali tug‘ilmagan bolalarni unashtirish; 2) bolalikda unashtirish; 3) voyaga yetganda unashtirish. Ular marosimlar orqali amalga oshirilgan. Mazkur maqolada biz bu marosimlarni o‘zbeklar misolida ko‘rib chiqamiz.

Birinchi tur unashtiruv *bel quda* marosimi orqali amalga oshirilgan: yaqin do‘st-birodarlar o‘z ayollari homiladorligi paytida, hali tug‘ilmagan bolalarni bir-biriga atashtirib qo‘yishgan. Go‘dak tug‘ilib ulg‘aygach, turmush qurishlari mumkin bo‘lgan. Ikkinchi turda bolalikdan unashish ko‘zda tutilib, beshikda unashtirilgan bolalar *beshik quda* (*beshik ketdi*, *beshikkerti*) marosimi orqali bir-biriga bog‘langan. Ammo ko‘p holatda 5 – 6 yashar (yo undan katta) bola bilan qiz chaqaloq (yo undan katta) unashtirilgan bo‘lib, u *quloq tishlar, quloq tishlatar* deb nomlangan. Uchinchi turda balog‘atga yetgan yigit va qiz ikki oila xohish-istagi bilan unashtirilib, o‘zbeklarda mazkur amaliyot bir necha marosimda amalga oshishi mumkin bo‘lgan: *oqliq oldi, non sindirish, fotiha to‘yi*.

Ibtidoiy davrda paydo bo‘lgan bu an’analar kelib chiqish va mazmuniga ko‘ra farqlanib, birinchi ikki tur nikoh shakllaridan biriga kiradi. Ular bevosita qalinni bekor qiluvchi odatlar sifatida yuzaga kelgan. Xususan, *bel quda* (Qashqadaryoda *ich quda*) odatida to‘yning qalindan boshqa rasm-rusumlariga amal qilingan [3: 88–89; 1: 86]. *Bel quda* bo‘lishda ikki qadrdon do‘st homilador xotinlari qiz va o‘g‘il tug‘ishsa, do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash uchun kelgusida quda bo‘lishni niyat qiladi. Homilador ayollar qiz va o‘g‘il tug‘ishsa, sevinch bilan bir-birlarini «quda» deb ataydilar. Homilador ayollarning ikkalasi ham o‘g‘il tug‘ishsa, ular bir umrlik do‘st bo‘lganlar [12: 33]. Masalan, davlat to‘ntarishiga qadar (1917) Zarafshon vohasi o‘zbeklarida hali tug‘ilmagan bolalarni unashtirish qishloq oilalarida hali amalda bo‘lgan. Bir axborotchimizning aytishicha, uning opasini hali tug‘ilmasdan oldin unashtirishgan bo‘lib, tug‘ilgandan so‘ng, qiz ikki oylik bo‘lgach, unashtirish marosimi bo‘lib o‘tgan [8: 226].

Beshik quda (*beshik ketdi, beshikkerti,* qo‘ng‘irotlarda – *etak chartish*, Surxondaryo va Qashqadaryo o‘zbeklarida *etak yirtish*, Qashqadaryo vohasida *sirg‘a taqdi, oyoq bog‘latdi* (*ko‘gan soldi*), *etakka soldi*) hamda *quloq tishlash* deb nomlangan odatlarda qalin hajmi kam bo‘lgan, o‘g‘il bolaning otasi bolasi balog‘atga yetguncha xo‘jalikka zarar yetkazmay qalindan qutilib borishni, qizning otasi esa qalin hisobiga berilgan chorvadan foydalanishni nazarda tutgan [1: 86–87; 3: 89; 6: 12; 7: 22].

Bu odatlar zamirida ham o‘zining qonuniyatlari bor. Masalan, XX asrning boshlarigacha Qashqadaryoning quyi qismida qiz tug‘ilgan oilaga 5 – 6 yashar bolaning, Zarafshon vohasining Bulung‘ur tumanida esa qiz chaqaloqning chillasi chiqib, beshikka belash marosimiga 3 – 4 yashar o‘g‘il bolaning onasi shartlashish uchun kelgan [10: 39-40]. Qizaloqning ota-onasi, qarindosh-urug‘i rozi bo‘lsa, *quloq tishlash* odati bo‘lgan. Bolakay beshikda yotgan qizaloqning qulog‘ini ohista tishlab qo‘ygan. Bu bilan unga ega, homiy, hamroh sanalib qolgan. Marosim ularning ustidan turli shirinliklardan sochqi sochib nishonlangan. Qizaloq voyaga yetsa shu bolaga turmushga chiqadi, deya keksalar, o‘tirgan ayollar duo qilishgan. Tadbirga bir domla chaqirilib, qishloq oqsoqollari guvohligida «rasmiylashtirilib» qo‘yilgan. *Beshik ketdi* degani «qizimiz beshikdanoq sovchisiz o‘z munosib xaridorini topib, sotilib ketdi», degan ma’noni bergan [7: 22]. Qashqadaryo vohasida ushbu odat *beshikkerti* yoki *beshik ketdi* nomi bilan mashhur bo‘lib, mazmunan Yuqori Zarafshon vodiysidagi *beshikkerti* odatiga yaqindir. Qashqadaryo o‘zbeklaridagi *beshik ketdi* udumi bo‘yicha qiz tomon rozilik bergach, bo‘g‘irsoq pishirilib tarqatilgan. Chunki bo‘g‘irsoq qadimdan o‘zbeklar orasida serpushtlik ramzi hisoblangan. Vohada aynan shu marosimdan so‘ng bo‘lg‘usi kelin-kuyovning yaqin qarindoshlariga, qo‘shnilariga, mahalla va qishloq ahliga qizning «boshi bog‘langanligi» ma’lum qilingan [12: 31].

Etak yirtish odatiga ko‘ra, ikki oila a’zolari o‘zaro kelishgach, 1 – 3 yoshli qizaloq va o‘g‘il bolaning etaklarini birlashtirib, uchidan yirtib qo‘yilganki, bu ham ularning bir-biriga atashtirilganini bildirgan. Qo‘ng‘irot o‘zbeklarida bu udum «etakchartish» deb atalgan. Ushbu marosimda ham bo‘g‘irsoq pishirilib, elga ma’lum qilingan. Qizaloqning boshiga ro‘molcha, o‘g‘il bolaning boshiga esa do‘ppi kiydirib qo‘yilgan [2].

Oyoq bog‘lash odati beshikdagi qiz chaqaloqning o‘g‘il bolaga atalganini bildiradi. Ikki tomon ayollari bo‘g‘irsoq pishirib, qizaloqning atashtirilganligini mahalla ahliga ma’lum qilganlar. Bu qizaloqning o‘g‘il bola xonadoniga bir umr bog‘liqligini bildiradi, shu bilan birgalikda, qizaloqni yomon ko‘zlardan

saqlaydi. «Ko‘gan ip» chaqaloqning chillasi (qirqi) chiqqanidan so‘ng olingan va qulog‘iga sirg‘a sifatida taqib qo‘yilgan [2].

Etakka soldi odati tug‘ilgan qizaloqning doya ayol tomonidan biror go‘dak o‘g‘ilning nomini aytib, voyaga yetsa, shu yigitga turmushga chiqadi, deb etagiga solinishini bildiradi [12: 32].

Yuqoridagi marosimlar ko‘pni ko‘rgan bir nikohli ayol tomonidan qo‘shiqlar, duolar aytilgan holda amalga oshirilgan. O‘g‘il va qizlar bolaligidan bir-biriga ramziy unashtirilishi yoki *baxshanna* qilib qo‘yilishi orqali bo‘lajak qudalar bolalar voyaga yetgunlaricha bir-birlarini sinaganlar. Sayil, bayramlar va tantanalarda qizga o‘g‘il bolaning xonadoni o‘g‘li nomidan sovg‘alar «hayitlik» (ro‘mol, ko‘ylak, gazmol, shirinlik kabilar) jo‘natib turgan hamda qudachilik ramzi sifatida og‘irini yengil qilishda o‘zaro ko‘maklashganlar. Nikoh to‘yida esa qalin puli miqdori kamaytirilgan va to‘y xarajatlari ancha kam sarflangan [2]. G.S.Toshevaning ma’lumotlariga ko‘ra, vohada bunday odatlar tufayli turmush qurib, baxtli hayot kechirayotgan oilalar ko‘p uchraydi va hozirda ular vohaning cho‘l va tog‘ oldi qishloqlarida qisman saqlanib qolgan [12: 33].

Zarafshon vohasi qishloqlarida beshikligidayoq unashtirilgan bolalarga 8 – 9 yoshlarigacha birga o‘ynashga ruxsat berilgan, ularning o‘zlariga kelin-kuyovliklari haqida gapirilmagan. Fotiha to‘yidan keyin ular bir-birlaridan va o‘z navbatida, bir-birlarining qarindoshlaridan qochishni boshlaganlar. Agar kichik o‘g‘li bo‘lgan ota o‘zining do‘stlari yoki tanishlaridan birining qizini o‘g‘liga olib bermoqchi bo‘lsa-yu, ammo qiz ota-onasining qanday javob berishini aniq bilmasa, u holda ota qiz uyining eshik oldini choponi bilan supurib, shirinliklarni sochgan. Qizning ota-onasi yerdagi shirinliklarni ko‘rib, ularning qizlariga kimdir sovchi bo‘layotganini payqagandan so‘ng, sovchi bo‘layotgan tomon ularga bu ishni aynan ular qilganligini bildirgan. Bunday holatda qizning ota-onasi rozi bo‘lishga majbur bo‘lishardi. Ko‘p hollarda jismoniy kamchiliklari bo‘lgan o‘g‘il bolalarga ota-onalar kelinni aynan shunday yo‘l bilan topishgan [8: 226-227]. O‘z navbatida, bunday holat, shuningdek, yana quyida keltirilgan sabablarga ko‘ra, bu odatning XX asrning ikkinchi yarmidan yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi. Tug‘ilmasdan yoki beshikligidayoq unashtirilganlar bo‘lgan bo‘lsa ham, bu davrga kelib ularning o‘zaro nikoh qurishlari faqat o‘zlariga bog‘liq bo‘lib qolgan edi [2].

Yuqoridagi odatlarning ijobiy ijtimoiy-psixologik tomoni – avvalambor go‘dak yoshidagi bolalarni ularning ota-onalari orasidagi o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat hislari, bir-birlarini shaxs sifatida yaxshi bilishlari, bir-birlariga iqtisodiy, ma’naviy yaqinliklari, bir-birlari bilan yaqin do‘stdan yaqin

qarindoshga aylanish va doimo birga bo‘lish istaklari va nihoyat, ular uchun eng aziz bo‘lgan farzandlarini ishongan, sinalgan va har tomonlama talabga javob beradigan insonlar qo‘liga topshirish motivlariga asoslanadi. Bunda chaqaloqning «husnli» yo «yaxshi tarbiya ko‘rgan»ligiga qarab emas, balki ota-onasiga (odam shavanda, tagli-tugli, moddiy tomoni va h.) qarab qudachilikka intilinadi. Qadim zamonlarda bunday «qudachilik» qabilalar o‘rtasidagi urush-janjallarga chek qo‘ygan. To‘yga qadar o‘rtada yaxshi qo‘shnichilik, «ol tovog‘im, ber tovog‘im» bo‘lib turgan. Bolaligidan qizning va o‘g‘ilning ota-onalarida va farzandlarining o‘zlarida ham tegishli ustanovka shakllangan. Ushbu ustanovka asosida ikki yosh o‘zlarini bo‘lajak oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlab borishgan. Ulg‘ayotgan qiz o‘z umri davomida yigitga, yigit esa qizga g‘oyibona mehr, intiqlik, hurmat bilan voyaga yetishgan. Ikki oila umumiy maqsadlar asosida yanada yaqinlashgan. Ikki tomondagi ota-ona ham shunga munosib harakat, yangi tuzilajak oila tadorigini ancha uzoqdan ko‘rib borishgan. Ko‘p yillar davomida bir-birlarini sinab, kam-ko‘stlarini to‘ldirib borishgan. Ma’nan, jisman va ruhan bir-birlariga tayyorlanib, «bir olmaning ikki pallasi» bo‘lib, komil topishgan. Yuqoridagilarning barchasi – ustanovka, motivlar, bir-birlarini potensial er-xotin shaxsi sifatida o‘rganib borishlari, hayotiy kuzatuvlari ularning keyinchalik oila qurganda bir-birlariga moslashish bosqichini asoratlarsiz, destruktiv nizolarsiz o‘tishiga yordam beradi. Bunday sinamol, uzoq jarayonni pokdomonlik bilan bosib o‘tgan yigit-qizdan yaxshi oila vujudga kelgan.

Ushbu odatlarning salbiy tomoni shunda namoyon bo‘lganki, bunday sinovdan barcha yigit-qizlar ham o‘ta olmagan, tanlangan yigit-qiz har doim ham bir-biriga munosib bo‘lavermagan, natijada oila baxtsiz bo‘lib qolishi ehtimoli ham katta edi. Voyaga yetgan yigit-qiz bir-biriga yoqmasligi mumkin, undan tashqari ota-onalar ham o‘z farzandlariga boshqa yaxshiroq, munosibroq kuyov yoki kelin xohlashlari mumkin edi. Albatta, qadimda patriarxal munosabatlar hukmron bo‘lgan davrda, bu odatlarga ko‘proq amal qilingan, chunki farzand o‘z ota-onasining ra’yini qaytara olmagan. Ammo sobiq Sovet davrida bu odatlar ham qoralandi. «Seni partiya, komsomol, davlat himoya qiladi, ota-onang, qarindoshlaring fikri bilan hisoblashma, ular to‘yingga rozilik bermasa, komsomol to‘ylari qilamiz», deb badiiy asarlar yaratildi, ommaviy axborot, kino, teatrlarda ham tashviqot ishlari olib borildi. Bu esa yoshlarning o‘z ota-onasiga qarshi chiqishiga olib keldi [2].

Aynan shu sabablarga ko‘ra, bu odatlar asta-sekinlik bilan barham topmoqda. Faqat ba’zi viloyatlarning qishloqlarida ularni ko‘rish mumkin. Qishloq va shahar muhitini solishtirib bo‘lmaydi. Qishloqda hamma bir-birini

yaxshi taniydi, bu odatlarning amal qilinishiga ozmi-ko‘pmi sharoit bor. Shaharlarda, shu jumladan, Toshkentda yuqoridagi odatlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ancha kamayib, yo‘qolib ketdi. Toshkent shahrida bu odat 1999 – 2000 yillarda ba’zi oilalarda uchratildi, xolos. Bu ham oilalarning yaqinligi yoki qarindoshligi boisdir. Hozirgi paytda yangi urf-odatlar shakllanayotgan bir sharoitda ularning tiklanishi amri mahol [2].

Uchinchi tur unashtiruv amaliyoti alohida marosim yoki marosimdagi udumlar sifatida bajarilishi mumkin. Bu oilalarning xohishi, kelishuviga bog‘liq. Xususan, *oqliq oldi* (*oqliq*, *oqliq o‘radi*, *oq kiydi*) sovchilik jarayonining yakunlanganligini hamda qizning “boshi bog‘langanligini” bildiruvchi udum hisoblanadi. Bunda kelin bo‘lmish qizning onasi rozilik belgisi sifatida kuyovning onasiga oq ro‘mol berib yuboradi. Ba’zi viloyatlarda yigit tomon oqliq beradi (*oqlik oldi*) [5: 28]. Endi qizga boshqa sovchi kelmaydi. Yigitning onasiga oqliq, ya’ni oq dastro‘mol, oq dasturxon, oq ro‘mol, oq mato kabi narsalardan biri «qilayotgan ishimiz pok niyat bilan qilinmoqda, qoraliq aralashmasin» degan niyat bilan beriladi [2].

Ayrim joylarda *oq kiydi* udumi *fotiha to‘yi*dan avval, alohida marosim sifatida o‘tkazilgan. Andijon viloyatida kuyov tomondan to‘yga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda yordamlashgan kishilarga beriladigan ro‘molcha va kelinni kuyovning uyiga olib kelinganda kuyovning onasi qudalar oldiga olib chiqadigan bir kosa sut, oltita non ham “oqliq” deyiladi. Namanganda esa sovchilikka borgan kishilar tomonidan olib boriladigan sovg‘a-salomlar orasidagi oq rangli mato ham shu nom bilan ataladi. An’anaga ko‘ra, sovchi borgan oila o‘z qizini berishga rozi bo‘lsa, yigit uyidan yuborilgan tugun ichidagi oq mato, ya’ni “oqliq”ni olib qoladi, mabodo qizini bermaydigan bo‘lsa, “oqliq”qa qo‘lini tekkizmaydi. Ammo Toshkentda zamonaviylashgan yoki boy oilalarda oqliq berishning uchramasligi ham kuzatiladi. Bunday oilalar sovchilarning oxirgi kelishlarida ularga «oq o‘ravormaydilar», balki faqat «non sindirish» bilan cheklanib qo‘yadilar, xolos. Lekin bunday oilalarda ham fotiha to‘yi qilishlari kuzatiladi. Bu ham ikki tomonning kelishishiga bog‘liq [2].

Toshkentda oqliq berish *oq o‘rar*, shaharning ba’zi chet joylarida va Toshkent viloyatida *oqliq* nomi bilan atalib, sovchilik marosimida udum sifatida bajariladi. Odatda ayollar, ya’ni yigitning onasi, amma yo xolasi birga kelishadi. Ular o‘zlari bilan qoidaga binoan juft tugun olib kelishadi: patir va odatda, somsa. Eng katta odam olib kelingan patirlarning ikkitasini olib, kelin-kuyovning qo‘sha qarisin degan niyatda juft qilib ushatadi va bo‘lajak oilaga tilak tilaydi. O‘z navbatida, o‘tirganlar nondan bir tishlamdan olishi, quda bo‘lganlar bir-birlarini tabriklashlari ham ramziy harakatlar sifatida bajariladi.

Mazkur udum *non sindirish* deb nomlanib, *oq o‘rar*da uni ayollar, *fotiha* marosimida erkaklar sindiradi [2]. Nonning sindirilishi nafaqat sovchilik marosimini yakunlaydi, balki qizning «boshi ikki bo‘lganligini» ham bildiradi.

Non sindirish Markaziy Osiyo xalqlarida keng tarqalgan bo‘lib, otaning sovchi yuborgan oilaga qizini uzatishga rozi ekanligi hamda va’daning qat’iy va muqaddasligi, shuningdek, kelin-kuyov, quda oilalar ahil bo‘lishiga bildirilgan istakni ifodalaydi. *Non sindirish* udumi ham ayrim mahalliy tafovutlarga ega. Chunonchi, Farg‘ona vodiysidagi o‘zbeklarda u qizning otasi rozi bo‘lgach, bajariladi: sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, noni sindiriladi, so‘ng to‘y masalalari aniqlanadi [2]. Ilgari Surxondaryo viloyatida *non sindirish* qalin miqdorini belgilashdan so‘ng o‘tkazilgan – non teng ikkiga bo‘linib, kelin va kuyovning qarindoshlariga taqsimlangan [16].

Oqliq berish udumi boshqa viloyatlarda Toshkentnikidan farq qilsa ham, shaklan hammasi bir xildir. Masalan, Qashqadaryoda qizning onasi rozi bo‘lsa, asosiy sovchilarning kelishini aytadi. Bunda bir-ikki erkak va ayollardan tashkil topgan sovchilar keladi. Shu kuni olingan javob «Boshi bog‘landi» atamasi bilan yuritiladi. Kelgan sovchilarga oq ro‘molga tugilgan ikkita non va ikkita qatlama, bir ro‘molcha beriladi. Sovchi bu tugunchani kuyovning onasiga olib borib beradi. Kuyovning onasi esa tugunchadagi ikki qatlamani sindirib, shu yerda to‘plangan kishilarning hammasiga ulashib chiqadi va ularga «Sizlar ham to‘y ko‘ringlar» deb tilak bildiradi. Ikki non bilan ro‘molchani esa sovchiga topshirilgan vazifani o‘tagani uchun taqdim qiladi [2].

Andijon viloyatining ko‘p tumanlarida qiz tomonga kelgan sovchi o‘zi bilan birga turli-tuman noz-ne’matlar, non-patir olib kelgan. Ularning orasiga esa qimmatbaho bir dona ro‘mol ham qo‘yilgan. Sovg‘a-salomlar berilganda, ularning orasiga ko‘yilgan ro‘mol qiz tomonidan olib qolinsa, bu rozilik alomati, agar ro‘mol qaytarilsa, qiz tomonning rozi bo‘lmaganligi belgisi sanalgan. Bu odatni «Ro‘mol tashlash» deb yuritganlar. Bu odat qadimdan ma’lum bo‘lib, u «ro‘mol bog‘lash» tarzida xam qo‘llanilgan. Andijon, qarshi shaharlarida, Jizzaxning Zomin tumanida ham rozilik alomati sifatida non va qand almashtiriladi [2].

Aytish joizki, marosimlarda hukmron bo‘lgan, nisbatan keng tarqalgan oq rang qadimda yoshlarning kelajagini, tinchligini, baxt-saodatini ta’minlashiga ishonganlar. Shuning uchun ham oq rangli narsalar va taomlar sehrgarlik maqsadida ishlatilgan [11: 86]. Xorazmda sovchilarning kelin uyiga kirib kelganida, ularga oq unning chiziq shaklida peshonalariga surilishi, ko‘pgina joylarda kuyovning oyog‘iga oq poyondozning solinishi, oq shir suvning ichishga berilishi shular jumlasidandir [2]. Oqliqning berilishi ham

kelin-kuyovlarning ularning kelajakdagi yaxshi hayotini anglatgan. Umuman olganda, marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan jonsiz buyumlar ham sehrgarlik bilan bog‘liq muqaddas kuchga ega bo‘lgan. Non ham shular qatoriga kiradi. Barcha marosimlarda u tabarruk, muqaddas sanaladi. Barcha to‘ylarda rasmiylashgan odatga ko‘ra, o‘zi bilan non olib kelgan har bir mehmonga, albatta, to‘y nonini qaytarishgan va shu bilan o‘zi bilan nonni olib ketgan mehmonlar uydagilarini, G.P.Snesarev cherkov diniy marosimi bilan solishtirganidek, «prichaщeniye»[1] qilgan. Non – bu yerda mana[2] [11: 101-102]. Shu bilan birgalikda, patir ham «non sindirish»da mana hisoblanadi. Uning hamma bilan ulashilishi, yuqorida aytganimizdek, «Sen ham to‘y ko‘rgin» ma’nosini anglatadi.

Oqliq, fotiha tuyi marosimlari O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida mavjud bo‘lib, *non sindirish* ularning birida, yoki *oq o‘rar*da, yoki *fotiha to‘yi*da bajariladi. Shuni aytish kerakki, Toshkent shahrida ijtimoiy tuzilishning har xilligi va iqtisodiyotning o‘zgarib borishi urf-odatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, 2003 yildan boshlab ular ancha qisqardi. Toshkentliklarda bugungi kunda oilalarning kelishishiga qarab *sovchilik*dan so‘ng *oq o‘rar*, *non sindirish* bitta marosim sifatida o‘tsa, *fotiha to‘yi* alohida o‘tkaziladi yoki umuman o‘tkazilmaydi. Ko‘pchilikda esa *oq o‘rar*, *non sindirish* va *fotiha to‘yi* qo‘shib o‘tkaziladi. Agar qiz tomon fotiha to‘yi bo‘lishini xohlasa, *oq o‘rar*da fotiha kuni belgilanadi [2].

Fotiha to‘yi qiz bilan yigitni unashtirilganligi munosabati bilan o‘tkaziladigan kichik to‘y, unashtirishdir. *Fotiha* – arabchadan ochish, boshlanish degani bo‘lib, Qur’onning birinchi surasi, boshlanishi [14]. Demak, fotiha to‘yini nikoh sari qo‘yilgan ilk qadam deb tushunsak bo‘ladi. Toshkentda bu marosim «ma’lum oshi» deb ham ataladi. Bu ikki quda kelin-kuyovni unashtirilganini hammaga ma’lum qiladi, deganidir. Qalin va sepning islom dinidan avval paydo bo‘lganligi va ularni, aynan, «ma’lum oshi»da berilishi, bu marosimning islomdan ilgari ibtidoiy davrda paydo bo‘lganidan dalolat beradi. N.Kislyakov tojiklarning an’anaviy nikoh to‘yini ikki katta bayramdan iborat, ya’ni unashtirish – “fotiha to‘yi” (bayram I) va to‘y (bayram II), deb ko‘rsatgan. Shunda birinchisini matriarxat davrida bajariladigan to‘yning qoldiqlari, ikkinchisini esa patriarxat davriga tegishli, deb ko‘rsatgan. N.Lobachyova esa ikkalasining rivojlanishini ham patriarxat davriga to‘g‘ri kelishini, aytadi. Faqat bunda birinchisi patriarxatning ilk bosqichlarida shakllangan bo‘lsa, ikkinchisi keyinroq, ya’ni erkaklarning hukmronligi mustahkam o‘rnatilgandan keyin [4].

[1] Prichastiye – cherkovda prichaщeniye marosimida bir turli vino va nonning iste’mol qilinishi.
[2] Mana – Melaneziya va Polineziya yaqinidagi muqaddas ijobiy kuchlar; u koinotdagi ijobiy qutlug‘ kuch.

Biz ham N.Lobachyovaning fikrlariga qo‘shilamiz. Islom dinining kirib kelishi bilan marosimga diniy tus beriladi. Ba’zi xalqlarda bu marosimda mulla tomonidan *fotiha* surasining o‘qilishi shundandir. Bu, o‘z navbatida, marosimning nomiga ham ta’sir ko‘rsatib, uning «fotiha to‘yi» deb nomlanishiga olib keladi. Ammo o‘zbeklar uni «kichik to‘y» deb ham atashadi. Shuning o‘zida hamma narsa ma’lum bo‘ladi. Avvaliga yagona bo‘lgan to‘y ikkinchi bir to‘yning paydo bo‘lishi bilan kichik to‘yga aylanadi.

Fotiha to‘yiga mahalla oqsoqoli, kuyovning amakisi, tog‘asi yoki unga yaqin bo‘lgan kishisidan iborat erkaklar boradi. Istisnolar ham bo‘lishi mumkin. Biroq otasi fotiha to‘yiga bormaydi. Chunki qalinning berilishida, «oldi-berdi»da ikki quda o‘rtasida sovuqchilik tushib qolishi mumkin [2].

Toshkentdagi fotiha to‘yi boshqa viloyatlarnikidan o‘tkazilishida farq qiladi. Toshkentda fotihada qo‘y, guruch, un keltirilmaydi. «Qo‘y-guruch» Toshkentda «to‘y yuborar»da beriladi. Zomindagidek qudalar yuziga, Qumqo‘rg‘ondagidek qudalar yelkasiga, Yangiariqdagidek qudalar peshonasiga yaxshilik ramzi sifatida un surtilmaydi. Farg‘ona vodiysi, Qarshi, Kitob, Shahrisabzdagidek Toshkentda poyondoz solinmaydi. Xorazm, Qashqadaryo, Andijon viloyatlari kabi Toshkentda mehmonlarga shir suv (shakar aralashtirilgan qaynatilgan suv) ham tortilmaydi [2].

Respublikaning barcha viloyatlarida kuyov tomondan kelgan non, qand-qurs, xolva qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘larga oz-ozdan tarqaladi. Bu qizning egalik bo‘lgani, endi unga boshqa bir kishining og‘iz solishi gunohligini anglatadi. Tarqatilgan narsalar muqaddas sanalib, «bizlar ham to‘y ko‘raylik», degan niyat bilan tanovvul qilinadi. Fotiha to‘yida *to‘y yuborish* kuni va nikoh kuni belgilanadi. Ammo hozirda, yuqorida aytilganidek, to‘y yuborar marosimi bajarilmasligi munosabati bilan unda qilinishi kerak bo‘lgan narsalarning puli bitta qilib berilmoqda. Avvallari marosimda mulla ishtirokida «fotiha» o‘qilgan. Kelin-kuyov «fotihalik» hisoblangan. O‘zbekiston janubida bu «ijob» yoki «kichik to‘y» deyiladi [2]. Umuman olganda, fotiha to‘yida to‘y bilan bog‘liq barcha masala va muammolar hal qilinadi. Bu marosimdan so‘ng yoshlarning ota-onalari bir-birlarini quda deb atashgan va yigit qizning, qiz esa yigitning qarindoshlariga yo‘liqmaslikka harakat qilgan. Xalq orasida bu «kuyov qochuv», «kelin qochuv» deb ataladi [3; 13: 144].[3]

Umuman olganda, unashtiruv bilan bog‘liq marosimlar jarayoni ikki qudaning yanada yaqinlashuviga imkon berib, to‘y tantanasining aniq vaqtini va o‘rtada bo‘ladigan oldi-berdi ishlarining hajmi va qimmatini belgilab bersa,

[3] Bu odat matriarxat davridagi matrilokal nikohning qoldig‘i hisoblanib, tojiklarda, qozoqlarda, qirg‘izlarda, turkmanlarda ham bo‘lgan

boshqa tomondan esa yigit-qizlar uchun ham o‘ziga xos bir davrni boshlab beradi. Masalan, fotiha to‘yidan boshlab, qiz bilan yigit ota-onalari, qarindoshlari va yaqin kishilaridan qochib, berkinib yuradilar. Bu jarayon to to‘y o‘tib, *yuz ochdi* va *kuyov chaqirdi* pallasigacha davom etgan [38; 107-b.]. Toshkentda qochib, berkinib yurish odati uchramaydi, chunki katta shaharda qarama-qarshi tomonni ko‘rib qolish ehtimoli juda kam [2].

Tadqiqotimizga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

– unashtiruv marosimlarining xilma-xilligi va ahamiyati: turkiy xalqlarning, xususan, o‘zbeklarning unashtiruv marosimlari chuqur tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, ular unashtiruvni insonning turli yosh davrlarida amalga oshirish imkoniyatini beradi: tug‘ilmasdan, bolalikda va voyaga yetganda. Ularning mukammalligi shu bilan bog‘liqki, maqsad-mazmunidan kelib chiqqan holda unashtiruv nikoh shakli, yoki udum, yoki marosim sifatida namoyon bo‘ladi. Qanday shaklda namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar ular avvalo iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, oilalar o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlash, kelgusi nikoh poydevorini qo‘yishda ham muhim ijtimoiy ahamiyatga ega;

– an’analar transformatsiyasi: ibtidoiy davrda paydo bo‘lgan unashtiruv marosimlari sezilarli transformatsiyaga uchradi. Islom dinining kirib kelishi ularga diniy tus berib, avval boshda iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlagan odatlarga ma’naviy jihatni qo‘shdi. Bu madaniy islom diniga hech qanday aloqasi bo‘lmagan odatlarni saqlashda va ularni musulmonchilikka moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, tashqi madaniy omillarning ta’sirida hamda patriarxal an’analar sifatida ular tanlash erkinligini cheklaganligi bois odatlarning o‘zgarishiga, birinchi ikki turning esa yo‘qolib ketishiga olib keldi;

– ijtimoiy va psixologik ta’sir: unashtiruv odatlari nafaqat ikki oilani bog‘lashda, balki o‘zining ramziy sinovlari orqali nizolar ehtimolini kamaytirishga va oilaviy munosabatlarning barqarorligiga hissa qo‘shgan. Biroq, shu bilan birga, unashtiruvning birinchi ikki turi yoshlar tomonidan majburiy nikoh sifatida ko‘rilib, bunda yoshlarning shaxsiy xohish-istaklari hisobga olinmagan. Bu esa baxtsiz nikohlarga olib kelishi mumkin edi;

– an’analarning hozirgi holati: bugungi kunda unashtiruv odatlarining birinchi ikki turi ma’lum qishloq joylarida uchramasa, deyarli yo‘qolib ketdi. Saqlanganlari ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. O‘zbeklarda faqat uchinchi tur amalda an’analar sifatida saqlanib qolgan. Ular marosim yoki marosimda udumlar sifatida namoyon bo‘lib, ramziy jihatdan bajariladi. Urbanizatsiya va ijtimoiy turmush tarzining o‘zgarishi an’anaviy marosimlar sonining

qisqarishiga olib keldi. Biroq ba’zi elementlar zamonaviy sharoitlarga moslashishda davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bo‘riyev O., Usmonov M. O‘zbek oilasi. – Toshkent, «O’zbekiston», 2012. – 144 b.
2. Dala ekspeditsiya ma’lumotlari: Toshkent sh., 2001–2021 y.; Toshkent v., 2004 y.; Samarqand v., 2001–2002 y.; Andijon v., 2004–2006 y.; Farg‘ona v., 2004–2019 y.; Namangan v., 2006 y., 2021 y.; Qashqadaryo v., 2004 y.; Sirdaryo v., 2005 y.; Xorazm v., 2005 y.
3. Kislyakov N.A. Ocherki po istorii semi i braka u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – L.: Nauka, 1969. – 240 s.
4. Lobachyova N.P. K istorii slojeniya instituta svadebnoy obryadnosti (na primere kompleksov svadebnых obыchayev i obryadov narodov Sredney Azii i Kazaxstana) // Semya i semeynые obryadы u narodov Sredney Azii i Kazaxstana / Otv. red. G.P.Snesarev. – M., 1968.
5. Lobachyova N.P. Formirovaniye novoy obryadnosti uzbekov. – M.: Nauka, 1975. – 140 s.
6. Mardonova G. Nur to‘la uy. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 88 b.
7. Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari: Millatning kenja bo‘g‘iniga. – Toshkent: Fan, 1993. – 222 b.
8. Monogarova A.F. Semya i semeynыy bыt / Etnograficheskiye ocherki uzbekskogo selskogo naseleniya. – M.: Nauka, 1969. – S. 193-243.
9. Mo‘minova Z. Jizzax bag‘ridan kelur navolar... // Saodat. 1990, № 9. Ilova.
10. Soatova S.A. Yuqori Zarafshon vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari (XIX asr oxiri – XX asr boshi): Tarix fan. nomz. ... dis. – Toshkent: O‘zR FA Tarix ins-ti, 1999. – 139 varaq.
11. Snesarev G.P. Relikты domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – 336 s.
12. Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari: Tarix fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2002. – 182 varaq.
13. Shaniyazov K. Uzbeki – karluki (Istoriko-etnograficheskiy ocherk). – Tashkent: Fan, 1964. – 195 s.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari. J. IV. Tartibot – Shukr / Tahrir hay’ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2008. – 688 b.

15. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Miriy – Parxish / Tahrir hay’ati A.Abduvohitov, A.Azizxo‘jayev, M.Aminov, T.Daminov va b. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2003. – 704 b.
16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. To‘ychi hofiz – Sharshara. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashr., 2005. – B. 116.